

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636198>

TILNING MODAL STRUKTURASI VA MODUSNING IFODALANISHI

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc), ilmiy rahbar.

Aynur Kuzenbayeva Qudrat qizi

Boshlang‘ich ta’lim 404 q guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilshunoslikda modallik kategoriyasi tushunchasi haqida fikr yuritiladi. Modallik – og‘zaki nutqning ajralmas funksional alomatlaridan biri ekanligi, gap mazmunining obyektiv borliqqa va so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabatlari hamda mazmuniy sintaksisda gapda ifodalangan mazmunning reallikka bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi obyektiv modallik borasida nazariy fikrlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: modallik, grammatik vosita, leksik vosita, frazeologik vosita, diktum, modus, subyektivlik, gap mazmuni, predikativ modallik, tilning modal strukturasi, konstruktiv-sintaksis, morfologik-sintaksis, intonatsion-sintaksis, propozitsiya, obyektiv voqelik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие категории модальности в лингвистике. Освещаются теоретические соображения о том, что модальность – один из неотъемлемых функциональных признаков устной речи, об

отношении содержания предложения к предметному бытию и содержанию предложения говорящего, а также об объективной модальности, отражающей в содержательном синтаксисе отношение содержания, выраженного в предложении, к действительности.

Ключевые слова: модальность, грамматическая среда, лексическая среда, фразеологическая среда, изречение, модус, субъективность, содержание предложения, предикативная модальность, модальная структура языка, конструктивно-синтаксис, морфолого-синтаксис, интонационно-синтаксис, пропозиция, объективная реальность.

ABSTRACT

This article reflects on the concept of the category of modality in linguistics. Theoretical considerations are highlighted on whether modality is one of the integral functional symptoms of oral speech, the relationship of the content of the sentence to the objective being and the speaker to the content of the sentence, and the attitude of the content expressed in the sentence to realism in the content syntax.

Keywords: modality, grammatical tool, lexical tool, phraseological tool, dictum, mode, subjectivity, sentence content, predicative modality, modal structure of language, constructive-syntactic, morphological-syntactic, intonational-syntactic, proposition, objective reality.

Tilda modallik kategoriyasi davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, takomillashib borayotgani hech kimga sir emas. “Modallik” atamasi bizni o‘rab turgan keng borliq, olamdagи tabiat hodisalari, voqeliklar spektrini anglatish uchun qo‘llanilib, o‘zining turli xil ma’nolari, grammatik xususiyati va har xil til sathlarida qo‘llanishi bilan ajralib turibdi. Funksional jihatdan modallik turli xil vositalar bilan, jumladan, grammatik, leksik va frazeologik vositalar yordamida o‘z ifodasini topadi.

Tilshunoslikda modallik tushunchasi so‘zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga, voqelikka munosabatini anglatuvchi ma’no kategoriyasi sifatida qaraladi,

ya’ni obyektiv voqelik so‘zlovchi ongida aks etadi va u o‘z munosabatini turli semantik kategoriyalar yordamida bildiradi. Demak, so‘zlovchining kommunikativ niyati, uning gap mazmuniga emotsiyal munosabatini bildiruvchi subyektiv modallik garchi gapning faollashtiruvchi qismi bo‘lsa ham, ularning tabiatini va gap tuzilishidagi asosiy roli shunchalik xilma-xilki, ularni faqat grammatik rejada “turli sathlilik”, semantik rejada so‘zlovchining “munosabatini ifodalash” belgisi ostida birlashtirish mumkin, xolos [1; 97-116].

Modallik – og‘zaki nutqning ajralmas funksional alomatlaridan biri. Modallik kategoriysi tilning eng murakkab va muloqotning mazmunga boy jihatlaridan hisoblanadi. Mazkur kategoriya nafaqat tabiiy va ijtimoiy fan sohasi olimlarini, balki tilshunos olimlarni ham birdek qiziqtirib kelayotgan muammolardan biri bo‘lib, leksikologiya, frazeologiya, so‘z yasalishi, morfologiya, kognitiv va matn tilshunosligida keng qo‘llanmoqda.

Odatda, gapdan anglashilgan obyektiv mazmun uchun diktum, uning subyektiv mazmuni uchun esa modus qo‘llanilib, ular o‘zaro zid qo‘yiladi. O‘zaro ziddiyatlari munosabatda bo‘lgan bu strukturalar o‘zaro shartlangan bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo etadi. Chunki gap mazmunining subyektiv elementi uning obyektiv elementi ustiga qo‘yiladi, ya’ni obyektiv mazmun bazis, subyektivlik esa uning ustqurmasi hisoblanadi.

Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va so‘zlovchining gap mazmuniga bo‘lgan munosabati tushuniladi [4; 56]. Shunga ko‘ra, mazmuniy sintaksisda gapda ifodalangan mazmunning reallikka bo‘lgan munosabatini aks ettiruvchi obyektiv modallik hamda “subyekt”, “gap mazmuni” va “obyekt” birligini aks ettiruvchi subyektiv modallik farqlanadi [5; 83-85].

Obyektiv modallik har qanday jumlaning zaruriy elementi hisoblanib, u bilish akti yo‘nalgan u yoki bu vaziyatda mavjud bo‘ladigan obyektiv aloqalarning xarakterini namoyon etadi. G.A.Zolotova modalikning bunday tipini predikativ modallik deb baholaydi. Uning qayd etishicha, “predikativ modallik jumla mazmunining borliq bilan munosabatini ifodalasa, modallikning subyektiv deb

ataluvchi boshqa turi so‘zlovchining aytيلayotgan axborotga nisbatan munosabatini ifodalaydi: so‘zlovchi o‘zi bildirayotgan fikrni tasdiqlashi yoki kirish modal so‘zlar va boshqa vositalar yordamida ushbu ma’lumotning voqelik bilan mos kelishkelmasligiga javobgarligini pasaytirishi mumkin.... Bunday modallik predikativ modallikka nisbatan ikkilamchi modal qavat hisoblanadi” [2; 96]. Bundan tashqari G.A.Zolotova modallikning xohish-istak, zarurat, mumkinlik kabi modal ma’nolarni qamrab oluvchi uchinchi turini – irreal modallikni ham ajratgani holda, bu ma’nolar jumlaning voqelikka munosabati bilan mos tushmaydigan boshqa modallik planiga tegishli ekanligini ta’kidlaydi.

Tilning modal strukturasi va modusning ifodalanishi xususida fikr yuritar ekan, Z.Yigitaliyeva ham modallikning obyektiv va subyektiv turlarini e’tirof etib, N.A.Seleznyovaning fikrlariga qo‘shilgan holda, subyektiv modallik, ya’ni “modus modallik ifodalay olmaydigan nutq subyektining propozitsiyaga nisbatan turli ko‘rinishdagi munosabatini yuzaga chiqarishini” [3; 14] ta’kidlaydi. Tadqiqotchi aloqa-aratashuv jarayonida belgi va predmet o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi yanada ortishi va bunda belgi nafaqat predmetga, balki kommunikativ vaziyatga ham yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkinligi haqida fikr yuritib, bu jarayonda borliqdagi narsa, predmet va hodisalarga taalluqli bo‘lgan tafakkurdagi tasavvurlar turlicha assotsiatsiyalanishi, biroq borliq elementlari ongda denotatga xos xususiyatlari bilan saqlangani holda, ular muallifning munosabatlari asosida turlicha guruhlanishini va bular lisoniy vositalar yordamida voqelanib, yaxshi, yomon, neytral parametrlari bilan muallifning munosabatini ifodalashga xizmat qilishini qayd etadi.

Darhaqiqat, Z.Yigitaliyeva ta’kidlaganidek, “tasavvurda axborotning filtrlanishi propozitsiyada modal strukturani shakllantiradi. Ko‘rinadiki, tilning modal tarkibi baho kategoriyasi bosqichiga o‘tganida tasavvur bilan bog‘lanib, diktum tarkibidagi munosabatga asoslangan modusni namoyon qiladi” [3; 14].

“O‘zbek tilining mazmuniy sintaksi” mualliflari ham gapning modal aspekti xususida fikr yuritar ekanlar, modallikning gap strukturasining zaruriy uzvi ekanligini ta’kidlagan holda, uning “gapni shakllantirishdagi o‘rni va subyektning gap

mazmunidagi munosabat darajasiga qarab, ikki guruhga – obyektiv va subyektiv modallikka bo‘linishini” [5; 89] e’tirof etadilar. Ularning qayd etishlaricha, “obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik ustiga qo‘yilgan qo‘srimcha modallikdir. Shuning uchun ham u gapning asosiy uzvi emas” [5; 89]. Shu bilan birga, modallik ma’nosini til sistemasining turli sathlarida kuzatilib, universallik kasb etishi va shunga asosan modallikni ifodalovchi vositalar ham rang-barang bo‘lishi ta’kidlanadi. Modallikning turkiy tillar materiallari assosidagi tahliliga ko‘ra “quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs qo‘srimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so‘z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so‘roq olmoshlari, undalmalar, kirish so‘z va gaplar” [5; 81]. Ushbu vositalar o‘z funksiyalarini gap tarkibida bajargani bois, ularning sintaktik belgisi muayyan sinflarga birlashishi uchun asos bo‘ladi va sintaktik belgisiga ko‘ra modallikni ifodalovchi vositalar 1) konstruktiv-sintaktik; 2) morfologik-sintaktik; 3) intonatsion-sintaktik kabi sinflarga ajratiladi [5; 82].

Tilshunoslikda modallik kategoriysi xususida fikr yuritar ekan, K.Umarov ham obyektiv voqelik so‘zlovchi tomonidan baholash tarzida qabul qilinishini ta’kidlagan holda, bu voqelikni o‘z ongida aks ettirib, unga bo‘lgan munosabatini turli semantik kategoriylar yordamida voqelantirishini bayon qiladi. Uning qayd etishicha, “Jumladagi modallik kategoriyasini anglash uchun propozitsiya, diktum va modus tushunchalarini farqlash zarur bo‘ladi. Propozitsiya – obyektiv holatni aks ettiruvchi o‘zgarmas ma’no. Muayyan jumlada propozitsiya so‘zlovchi tomonidan u yoki bu tarzda talqin qilinadi. Natijada, ifoda ikki tomonlama mazmunga ega bo‘ladi: obyektiv mazmun va uning talqini”. [6]

Demak, gap orqali ifoda etilayotgan obyektiv voqelikning – propozitsiya yoki diktumning so‘zlovchi shaxs, ya’ni subyekt tomonidan talqin qilinishi modusni hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matyakubov O.Q. Qiyosiy tilshunoslikda modallik kategoriyasi: Tadqiq va talqin (Fransuz hamda o‘zbek ertak, naqllari misolida) International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2024, vol. 10, No 1 (54), pp. 97-116
2. Золотова Г.А. Модальность в системе предикативных категорий. <https://digilib2.phil.muni.cz/flysystem/fedora/pdf/120833.pdf> – С. 96. (murojaat sanasi 16.11.2023.)
3. Йигиталиева З.М. Тилнинг модал структураси ва модуснинг ифодаланиши. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... (PhD). автореф. – Фарғона, 2021. – Б.14.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А.Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 56.
5. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент: Фан, 1992. – Б. 83-85
6. Умаров К. Хоҳиш-истак концепти – модаллик категорияси талқинида // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 |Issue 7| 2022. https://ares.uz/storage/app/uploads/public/62e/3c3/bcb/62e3c3bcbcaf40467161_29.pdf (murojaat sanasi: 20.11.2023)